Mahalliy korxonalar boshqaruv strategiyalarini amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish

O‘zMU makroiqtisodiyot kafedrasi
PhD Mirzayeva Azizaxon Sherzodovna

O‘zMU tadqiqotchisi
Sotvoldiyev Alisher Dilshod o‘g‘li

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida korxonalar boshqaruv strategiyalarini samarali amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilinadi. SWOT tahlili asosida kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlar aniqlanib, SOB strategiyasi (SWOT + OKR + BSC) orqali boshqaruv samaradorligi va risklarni boshqarish takomillashtiriladi. Natijada ERM va CRM tizimlari orqali korxona faoliyati va mijozlar bilan munosabatlar rivojlantiriladi.

Kalit so‘zlar: korxona boshqaruvi, SWOT tahlili, OKR, BSC, SOB strategiyasi, iqtisodiy mexanizm, risklarni boshqarish, ERM, CRM, strategik rejalashtirish.

Yangi O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonlarini liberallashtirish, jumladan, xususiy sektorni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor ahamiyat kasb etishi natijasida korxonalar boshqaruviga bozor iqtisodiyoti elementlarini joriy etish amaliyoti kengayib, bozor raqobati chuqurlashib bormoqda. Bu esa mahalliy korxonalar boshqaruv strategiyalarini amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish zaruriyatini kuchaytiradi. Jumladan, mamlakatda milliy iqtisodiyotida “standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, muvofiqlikni baholash sohalarini rivojlantirish va ularni xalqaro normalar bilan uyg‘unlashtirish”[1] bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlarning amalga oshirilishi korxonalar boshqaruv strategiyalarini amalga oshirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Korxonalarda boshqaruv strategiyalarini samarali amalga oshirish uchun avvalo mavjud muammolarni aniqlash zarur. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mahalliy korxonalar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy tizimli muammo — infratuzilma va texnologik yetishmovchilikdir. Xususan, kichik va o‘rta biznes subyektlari raqamli transformatsiya va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish jarayonlarida global tendensiyalardan orqada qolmoqda. Shuningdek, davlat tomonidan yaratilgan imtiyozlardan foydalanishda mavjud byurokratik to‘siqlar iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini pasaytirib, strategik maqsadlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishini cheklamoqda.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligi va uning tizimidagi tashkilotlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish choralari to‘g‘risida”gi 370-son qarori, 01.07.2024-y.



1-rasm. O‘zbekistonda korxonalar boshqaruv strategiyalarini amalga oshirish sohasidagi muammolar[2]

Korxonalarda boshqaruv strategiyalarini samarali amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi asosiy muammolar quyidagilardir:

- **Moliyaviy resurslarning yetishmasligi.** Kichik va o‘rta korxonalarning investitsion imkoniyatlari cheklangan, imtiyozli kreditlardan foydalanishda byurokratik to‘siqlar mavjud. Ichki investitsion salohat pastligi hamda xorijiy moliyaviy manbalarni jalb etishdagi cheklovlar korxonalarning strategiyalarini amalga oshirish jarayonini qiyinlashtiradi.
- **Iqtisodiy va huquqiy muhitning o‘zgaruvchanligi.** Islohotlar tez-tez yo‘nalishini o‘zgartirishi natijasida korxonalar faoliyatiga ta’sir qiluvchi qonun va me’yoriy hujjatlar barqaror emas. Bu esa rejalashtirishdagi noaniqlikni oshirib, strategik boshqaruv samaradorligini pasaytiradi.
- **Mehnat resurslari sifati pastligi.** Ta’lim tizimi mehnat bozorining real talablariga mos emas, yuqori malakali mutaxassislar yetishmaydi. Past ish haqi tufayli malakali kadrlarning chet elga ketishi “aql oqimi” muammosini kuchaytirmoqda.
- **Menejment va strategik rejalashtirishdagi kamchiliklar.** Ko‘plab korxonalarda uzoq muddatli strategik boshqaruv tizimi shakllanmagan, rahbarlar va menejerlar zarur bilim va tajribaga ega emas. Bu esa korxona boshqaruvining iqtisodiy samaradorligini pasaytiradi.

Ko‘p mahalliy korxonalar boshqaruvida SWOT tahlil asosida kuchli (Strengths) va zaif (Weakness) tomonlar aniqlanadi, mavjud imkoniyatlar (Opportunities) va tahdidlar (Threats) baholanadi. Shu asosda boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Kelajakda korxonalar boshqaruvi strategiyasini takomillashtirish uchun SWOT natijalariga asoslangan OKR (Objectives and Key Results) va BSC (Balanced Score Card) modellarini birlashtirish tavsiya etiladi:
SWOT + OKR + BSC → SOB. **2-rasm.**

[2] Muallif tomonidan tuzilgan



2-rasm. Korxonalar boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlari iqtisodiy mexanizmi takomillashtirilgan "SOB" strategiyasi tarkibiy komponentlari

Jarayon quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Korxonaning raqobatchilikka nisbatan ustunliklari aniqlanib, "Strengths"ga yoziladi.
2. Ichki muammolar va resurs yetishmovchiligi "Weakness" qismiga kiritiladi.
3. Kuchli va zaif tomonlar asosida bozor qamrovini kengaytirish, tashqi omillardan samarali foydalanish va innovatsiyalar "Opportunities"ga yoziladi.
4. Riskli vaziyatlar va tahdidlar "Threats"ga kiritiladi.

SWOT tahlilida ichki omillar boshqaruv strategiyasining samaradorligiga, tashqi omillar esa strategiya yo'nalishlarini belgilashga asos bo'ladi. Shu tartib har qanday tarmoqdagi korxonalar uchun standart sifatida qo'llaniladi.

1-jadval

Korxonalar boshqaruv samaradorligini baholashning "SWOT" tahlilini amalga oshirishning na'munaviy shakli[3]

Kuchli taraflari **Strenghts**	**Zaif taraflari** **Weaknesses**
Raqobar ustunliklari (ichki omillar)	*Korxonaning kuchsiz taraflari (ichki omillar)*
Imkoniyatlar **Opportunities**	**Tahdid (risk) lar** **Threats**
Korxona boshqaruv samaradorligi oshirish imkoniyatlari (tashqi omillar)	*Korxona faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq risklar (tashqi omillar)*

O'tkazilgan "SWOT" tahlili natijalariga asoslangan holda korxona boqsharuvi strategiyasini amalga oshirish bo'yicha "Maqsadlar va kalit natijalar (Objectives and Key Results – OKR)" dasturi ishlab chiqiladi. Bunda "korxona o'z oldiga o'zining mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda strategik maqsadlarni belgilagan holda, ularga erishish bo'yicha mezon ko'rsatkichlarini ishlab chiqishi kerak bo'ladi"[4].

[3] Muallif tomonidan tuzilgan

[4] Troian Th.A., Gori R.S., Lacerda D.P., Gauss L. OKRs as a Results-Focused Management Model: A Systematic Literature Review. Conference: International Joint Conference on Industrial Engineering and Operations Management. October 2022. – 13 pages. DOI: 10.14488/IJCIEOM2022_FULL_0020-37589

Taklif etilayotgan korxonalar boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlari iqtisodiy mexanizmi takomillashtirilgan “SOB” strategiyasidan foydalanilishi hisobiga mahalliy korxonalar boshqaruvida zamonaviy bozor munosabatlari talablariga mos keladigan boshqaruvning “ERM (Enterpise Resourse Management) +CRM (Customer Relationship Management)” tizimi shakllanishiga erishiladi. Bu orqali korxonalar boshqaruv strategiyalarini amalga oshirish jarayonida risklarni boshqarish samaradorligi ortib, mijozlar bilan vujudga keladigan munosabatlar rivojlanishining yangi bosqichiga o‘tish imkoniyatlari yaratiladi. Bu esa mahalliy korxonalar boshqaruv strategiyalarini amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi samaradorligini oshirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Hou Q. Analysis of Nike Brand Operation and Marketing Strategy in Different Bussiness Periods Based on 4P Marketing Theory. Highlights in Business, Economics and Management, Vol. 23, 2023. – pp. 636-641
2. Barnes D. The manufacturing strategy formation process in small and medium-sized enterprises. Journal of Small Business and Enterprise Development, Vol. 9(2), 2002. – pp. 130-149
3. Aluchna M. Corporate Social Responsibility vs. Business Strategy. Upravlenets-The Manager, 9(4). 2. 2018. doi 10.29141/2218-5003-2018-9-4-1
4. Bidmon C.M., Knab S.F. The three roles of business models in societal transitions: New linkages between business model and transition research. Journal of Cleaner Production, 178, 2018. – pp. 903-916.
5. Ali B.J., Anwar G. Proter’s Generic Competitive Strategies and its Influence on the Competitive Advantage. International Journal of Advanced Engineering, Management and Science. Vol. 7, Issue 6, Jun. 2021. – pp. 42-51
6. Edwards M.G.. The growth paradox, sustainable development, and business strategy. Business Strategy and The Environment, 30(7), 2021. – pp. 3079-3094
7. Guignard E., Jarvinnen E., Meireles J. Detrick B., Pereira A. Teixeira T. Lamborghini: An Approach to the Organization Study. International Journal of Multidisciplinary Research and Analysis. Vol. 06, Issue 05, May 2023. – pp. 2110-2114
8. Ким Л.И. Стратегический управленческий учет: монография / Л.И. Ким. – М.:ИнфраМ, 2017. – 189 с.
9. Голубцова Ю.О. Методы стратегического планирования деятельности современного предприятия / Ю.О. Голубцова // Актуальные исследования. – 2020. – №17 (20). – С. 68-71.
10. Егоров, А. А. Управление стратегическим развитием и организационными изменениями компании / А.А. Егоров // НАУ. – 2021. – №36-3. – С. 15-18
11. Сахарова С.М. Методы стратегического менеджмента в системе публичного управления / С. М. Сахарова, Л. В. Тугачева, А. А. Суровнева // Вестник Академии знаний. – 2022. – №6 (53). – С. 476- 482
12. Седельников В.М. Теоретико-методологические аспекты стратегического управления компанией / В. М. Седельников // Вестник ЧелГУ. – 2023. – №3 (473). – С. 23-35
13. Mihaylova L., Papazov E. Strategic Management of Small and Medium-Sized Enterprises – Is There Space for Functional Strategies. TEM Journal, Vol. 13, Issue 2, May – 2024. – pp. 1277-1282.